

BO'LAJAK BIOLOGIYA O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHNING MAZMUNI VA MODELI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7824984>

Norquziyeva Madina Sharof qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: *O'sib kelayotgan avlodni ma'nnaviy, axloqiy-estetik tarbiyalash, ijodiy va madaniy tajribani yetkazishda pedagog kadrlar alohida o'rinni tutadi. Ushbu maqolada bo'lajak biologiya o'qituvchilarining biologiya fanidan metodik tayyorgarligini, biologik bilim va ko'nikmalarini yanada rivojlantirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar keltirilgan. Biologik mazmunni integratsiyalovchi xususiyatlari va strategik yo'naliishlari mazmun jihatidan umumlashtirilgan.*

Kalit so'zlar: *pedagog, metod, strategiya, bilim, ko'nikma.*

Biologiya fanini o'qitish jarayonida talabalarning metodik tayyorgarligi muammosini kompleks hal etish vazifasiga muvofiq tadqiqotning metodologik asoslarini aniqlash zaruratini ko'rsatadi.

Biologiya bo'yicha dasturning boyitilganligi o'quv jarayonini talabalarning metodik ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar bilan to'ldirishga imkon bermaydi. Ma'lumki, biologiya o'rganish jarayonida talabalarning metodik bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish bevosita biologiyaga oid materiallarni o'zlashtirish bilan birgalikda olib boriladi. Shu sababli biologik va metodik komponentning yaxlit metodik tizimli integratsiyasining muayyan mexanizmini ishlab chiqish zarur.

Ilmiy va metodik komponentlarning umumiyligi nimadan iboratligini aniqlash uchun z biologiyani o'qitish jarayoniga yaxlit qarash va uni pedagogik OTMning boshqa ilmiy fanlaridan farqlovchi o'ziga xos jihatlarini aniqlash maqsadga muvofiq. Bu biologiya o'qituvchilarini metodik tayyorlash tizimida biologiya fanining o'rnini topishga, uning ushbu jarayonga qo'shadigan hissasini aniqlashga imkon beradi. Biologik bilimlar asosida metodik tayyorgarlikni umumlashtirishga xizmat qiluvchi yetakchi metodologik yondashuv sifatida biologiya fani modelini qurishning yaxlit yondashuvi xizmat qiladi. Bu umumiy falsafiy yondashuv bo'lib, uni amaliyotda qo'llash turli metodologik darajalarda aniqlashtirishni talab etadi

Biologik mazmunning integratsiyalovchi xususiyati, birinchidan, u materiya harakatining biologik hayoti rivojlanishi nima bilan yakunlanganligi, ikkinchidan, materiya harakatlanishining biologik shakli nimadan boshlanganligi, qanday biologik qonuniyatlar uning yuzaga kelishiga sabab bo'lganligini ko'rsatadi. Shunga binoan, biologiya fanini o'rganish jarayonidagi metodik tayyorgarlik talabi – talabalarning biologiya fanlari bo'yicha bilimlarini umumlashtirish uchun biologik mazmundan

foydalishga o'rgatish hisoblanadi. Bunda umumlashtirish biologiya kursini qurishda strategik yo'naliishga aylanadi, u pedagogik OTMdada biologiyani o'qitish metodik tizimini qurish usuli sifatida va maxsus o'zlashtirish obyekti sifatida xizmat qiladi. Bunday usul qator psixologik-pedagogik va metodik vazifalarni yechish imkonini beradi. Bular quyidagilar:

1. Umumlashtirish umumiyyadan xususiyga tomon boruvchi zoologiya fani mazmunining tuzilishini belgilaydi. Asosiy va ahamiyatlisini aniqlash keng biokimyoiy mazmun orasida o'qituvchi maktabda o'z o'quvchilariga yetkazishi kerak bo'lgan bilim va ko'nikmalar doirasini belgilash imkonini beradi. Umumlashgan bilimlarni aniqlashtirish darajasi o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi va yosh xususiyatiga, o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish metod, shakl va vositalari, sinf ixtisosligi va boshqa sharoitlarga bog'liq .
2. Fan mazmunini mazmunli umumlashtirish prinsipiga mos ravishda yaratishni talabalarning mazkur mazmunni o'zlashtirishlari bo'yicha o'quv faoliyatlarining tuzilishi belgilab beradi. Umumlashtirishni amalga oshirishda asosiy amallar – mavhumlashtirish (asosiy va ahamiyatlisini ajratish), modellashtirish (obyekt modelini uning ahamiyatli tavsiflarini bilish asosida qurish) va aniqlashtirish (umumiy qonuniyatlarni bilish asosida xususiy holatlarni tushuntirish) hisoblanadi .
3. Mazmunli umumlashtirish o'qitish vositalari tizimini belgilaydi – bu biologik obyektning asosiy va ahamiyatli tavsiflarini qayd etuvchi, ularning turli sharoitlardagi ifodanishini tadqiq etishga imkon beruvchi barcha turdag'i modellar.
4. Umumlashtirish talabalarning tizimli nazariy fikrlashlarini rivojlantiradi va maktabda rivojlantiruvchi o'qitish texnologiyalaridan biri hisoblanadi.
5. Umumlashtirish – bu OTMdada va maktabda fanlararo aloqadorlikni o'rnatishning ahamiyatli usuli hisoblanadi. Uni amalga oshirishda qator fanlar uchun umumiy hisoblangan metodologik tushunchalarni jalg etish talab etiladi. Shu tariqa, umumlashtirish talaba hamda o'quvchi ongida olamning yaxlit manzarasini rivojlantirishga yordam beradi.
6. Umumlashtirish – bu biologiya kursi mazmuniga ekologik komponent integratsiyasining asosidir, chunki biologik bilimlar o'z mohiyatiga ko'ra umumlashtiruvchi xususiyatga ega. Shu asosda butun olamdag'i barcha jarayonlarning umumiy o'zaro aloqadorligi va ta'sirini tushunish yotadi. Shuning uchun insonning biologik tasavvurlari tizimiga zoologik mazmunni kiritishda uni umumlashtirishning zarur maksimal darajasiga ko'tarish kerak.

Talabalarning biologiya fanini o'rganishlari davomida ularning metodik tayyorgarliklari tizimini yaratishda bevosita metodik tayyorgarlikning o'ziga xosligini inobatga olish talab etiladi. Uning mohiyati, bo'lajak o'qituvchi ikki o'zaro bog'liq faoliyat – o'qituvchi faoliyati va biologik mazmunni o'zlashtirishga yo'nalan o'quvchi faoliyatini o'zlashtirishi kerakligidan iboratdir. Talaba o'quvchi faoliyatining tuzilishini uning o'z o'quv faoliyati davomida tushunishi va o'zlashtirishi mumkin. Buning uchun

bo'lajak o'qituvchi biologik mazmunni o'zlashtirishning motiv, maqsad va vazifalarini, o'quv muammosi, shuningdek muammo yechimiga olib keluvchi o'quv jarayonini tashkil etish metod, shakl va vositalarini anglashi mumkin bo'lgan sharoitlarni yaratishi zarur. Talaba o'qituvchi faoliyati tuzilishini anglashi uchun uning rolini o'z zimmasiga olishi kerak. Bu bo'lajak pedagog metodik faoliyatining motiv, maqsad va vazifalari hamda o'quv jarayonini amalga oshirish davomida yuzaga keladigan muammolarni tushunishi zarurligini anglatadi.

Evolutsion tasavvurlar axloqiy qadriyatlar sifatida muayyan tushunchalar ilgari surilishini asoslashga imkon beradi. Aynan evolutsion jarayonni "egallah", ya'ni yuzaga kelishi tabiatdagi rivojlanishning sifatli ilgarilashiga olib kelgan xususiyatlar ahamiyatli hisoblanadi. Hayotning yuzaga kelishi nuqtai nazaridan jonli tizimlarning noyob sifatlari – biologik tizimlarning qator avlodlarida o'zining kimyoviy tuzilishini aniqlikda qayta ifodalash qobiliyati ahamiyatli va muhim hisoblanadi. Avlodlar almashinuvi orqali hayotning doimiy o'zini-o'zi yangilashi sodir bo'ladi .

Ijtimoiy tizimlar evolutsiyasi uchun bu sifat katta ahamiyatga ega bo'lsa-da, ammo u evolutsion jarayonni belgilamaydi. Ijtimoiy evolutsiya uchun avvalgilaridan ko'ra keyingi avlodning ma'naviy va intellektual jihatdan rivojlanishi muhim sanalib, ijtimoiy taraqqiyot sodir bo'lish mumkin. Shuning uchun o'sib kelayotgan avlodni ma'naviy, axloqiy-estetik tarbiyalash, ijodiy va madaniy tajribani yetkazishda pedagog kadrlar alohida o'rinn tutadi. Zoologiya kursi mazmunini qurishga evolutsion aloqadorliklarni jalg etish natijasida bo'lajak pedagoglar tomonidan o'qituvchining zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy rolini, amalga oshirilgan kasbiy tanlov va kasbiy tayyorgarligi sifati uchun shaxsiy mas'uliyatni chuqur anglashlariga erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Tolipova J.O., G'ofurov A. T. Umumiy biologiyani o'qitish metodikasi. (11-sinf) Toshkent.: Sharq.- 2004, - 128 bet.
2. Tolipova J.O. va boshqalar. Botanika o'qitish metodikasi. 5-sinf. T., "O'zbekiston", 2003 yil – 96 bet.
3. Norquziyeva M.Sh. "Umurtqalilar zoologiyasi fanini o'qitishni takomillashtirishning metodik ta'minoti" International Scientific-online conference. 2022
4. Tolipova J.O, G'ofurov A.T.-Biologiya ta'limi texnologiyalari. Metodik qo'llanma "O'qituvchi" T.: 2002 - 128 bet.